

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**4/4-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

# **4/4-сан 2024**

*апрель*

**Шолкемлестириүшилер:**

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлиги,  
ФЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Маңсет АЙЫМБЕТОВ	Лобар МУХТОРОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Раъно ОРИПОВА
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Сайёра РАХМОНОВА
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Нурийдин АЧИЛОВ	Феруза САПАЕВА
Тұлкин АЛЛАЁРОВ	Зайниддин САНАҚҰЛОВ
Мариғжон АХМЕДОВ	Қажхор ТУРСУНОВ
Умида БАХАДИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Гулноз ТУРАЕВА
Шахло БОТИРОВА	Гулмира ТОЖИБОЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Аскәр ДЖУМАШЕВ	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Дилбар ҚАРШИЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дилбар ҚОДИРОВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Абдушукур ШОФҚОРОВ
Аскәrbай НИЯЗОВ	Дилфұза ШАББАЗОВА
Сабит НУРЖАНОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Мехри НАРБАШЕВА	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Улғат МАҲКАМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Уролбой МИРСАНОВ	Умид ХОДЖАМҚҰЛОВ
Нуржан МАТЧАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Сафо МАТЧОН	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Шукурилло МАРДОНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Шахсанам МАТУПАЕВА	Қонысбай ЙОСУПОВ



## МАЗМУНЫ

Султанов Б. Академик Чаржоў Абдировтың туýылғанына — 90 жыл. Ибрат мектебин жараткан инсан еди

7

## ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Fozilov O. O'zbek va ingliz tillarida hosila nominalining motivatsion asoslari (perefrazalar misolida)	16
Botirova Sh.I. Ulug'bek Hamdam qissa poetikasida ong osti kechinmalarida axloq talqini	22
Juraeva G.A. Bolalar she'riyatida shakliy izlanishlar	27
Aliyeva Z. Ornitonim komponentli ingliz va o'zbek idiomalarining tahlili	36
Alimova Sh. Ingliz va o'zbek tillarida pora va ta'magirlilik konseptlarining lingvomadanii va semantik talqini	41
Aliyeva Z. Ingliz va o'zbek tilida ornitonim komponentlari bo'lgan frazeologik birliklar haqida ilmiy qarashlar	45
Eshquvvatova G. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning tasnifi food/taom komponentli frazeologik birliklari misolida	49
Марданов А. Основные понятия логико-семантических моделей	53

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Maxmudova M. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati va nazariyasi	57
Karshiyev J.A. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning innovatsion metod va vositalari	64
Abdimurotov O.U. Geografiya darslarida mustaqil ta'limni tashkil etishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalananish metodikasi	72
Жамолдинова О. Халқ педагогикасида соғлом түрмуш маданийти масалалари	82
Irisboeva X.O'. Milliy didaktik terminologiya tizimining shakllanishi va taraqqiyot yo'llari	94
Расулов О. С. Оммавий жавобгарлик механизми маҳалла тузилмасини бошқариши самардорлигини ошириш асоси сифатида	104
Ismailov S.A. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida xalqaro baholash topshiriqlarining formati: kognitiv darajalari, kontekstlari, mazmun sohalarini tushuntirish	109
Isabayeva M.M., Toshpulatova D.S. O'quvchilarda kreativ фаолиятни rivojlantirish функциялари	116
Jabborov M. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashning shakl va metodlari	121
Irisboeva X.O'. Milliy didaktika bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-metodik kompetensiyasini shakllantirish omili sifatida	128
Usmanova Sh. DJ. Kasbiy shakllanishda ijtimoiy faoliy va intellektual xususiyatlar	132
Mahkamova Sh. Innovatsion texnologiyalar asosida musiqa san'ati boshqaruvi	137
Xo'jamqulov P., Musayev N., Muminova D. Ummumta'lim maktablari o'quvchilarida ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari	143
Qayumov J. O'quvchilarga xonandalik asarlarini erkin va ifodalı kuylatish uslublari	147
Musayev N., Xo'jamqulov P. O'zbek milliy maqom san'atini yosh ijrochilarga o'rgatishda etibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar	154
Rajabova S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda Marvelous Designer dasturidan foydalananish metodikasi	159
Yunusov O. Musiqa ta'limida qo'shiq kuylash ijodiy faoliyatga o'rgatish	165
Umarov A. Pedagogik-kasbiy kompetentlik ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida	171
Eshankulova D. Ummumta'lim maktablarida kimyo fanining o'qitilishi va zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilish uslublari	176
Yadgarova D. Talabalar valeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	181
Lafasov B. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni muhandislik kasbolariga yo'naltirishda "STEAM – ta'lim"	186
Mo'minov K. Forsayt texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv	190



<b>Umirova G.</b> Texnika oliv ta'limga muassasalarini talabalarida rahbarlik qobiliyati va boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy qismlari .....	200
<b>Ernazarova M.J.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida klasterli yondashuv asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish .....	206
<b>Qosimov Sh.</b> Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish .....	213
<b>Xayitova Sh.</b> Oilada o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik omillari .....	225
<b>Xoliqova R.</b> Ona tili ta'limalda o'quv topshiriqlarini metodik-pragmatik takomillashtirish .....	230
<b>Muxitdinova M., Syomkina A.</b> Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari .....	235
<b>Maxkamova M.</b> Pedagogika oliv ta'limga muassasalarini talabalarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari .....	239
<b>Muslimov Sh.</b> Bo'lajak texnologik ta'limga o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish mezonlari .....	243
<b>Xaydarova M.</b> Ta'limga qonunlari - uni samarali tashkil etish bu ba'zi muhim talablar uchun asosdir .....	247
<b>Toshmatova Sh., Ernazarov Z.</b> Bilogiya faning yangi metodikalari .....	252
<b>Xakimov T.</b> Sharq allomalaring pedagogik qarashlari asosida oliv ta'limga talabalarining pedagogik tafakkurini oshirishni takomillashtirish .....	259
<b>Nazirova F.</b> O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat .....	265
<b>Irmatova M.</b> Boshqaruv psixologiyasining fundamental asoslari .....	271
<b>Xaydarova M.</b> Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalananishda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish .....	277
<b>Rasulova M.</b> O'qituvchilarning loyihaга asoslangan o'qitish kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy usullari .....	283
<b>Djabbarova N.</b> Talaba-qizlarda liderlik sifatlarni rivojlantirishning ta'limiylarini imkoniyatlari .....	288
<b>Haydaraliyeva Z.</b> O'zbekiston ta'limga tizimini xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish .....	295
<b>Rajabov X.</b> Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining axborot-metodik kompetentligini takomillashtirishda raqamli ta'limga texnologiyasidan foydalananish tamoyillari .....	301
<b>Буртешова А.Б.</b> Эмпатия в современных направлениях консультирования и психотерапии .....	308
<b>Сайдахметова Д.Х.</b> Ўқувчиларда касбий-ижодий кўнинмаларни шакллантиришнинг ривожлантириши кўнинмалари .....	316
<b>Kayumova G.A.</b> Factors in the development of language and speech culture in young people ....	324
<b>Saidova D.B., Burieva K.E.</b> "Chirchiq modeli" asosida ilmiy kognitiv kompetentligini rivojlantirish psixologik omillari .....	328
<b>Сайдова Д.Б., Буреева К.Э.</b> Методы и приемы мотивации учащихся при обучении биологии и особенности процессов запоминания .....	334
<b>Mavlonovalyova G.Dj., Matniyazova H.X.</b> Takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning genetik kolleksiysi namunalarining morfologik belgilari .....	341
<b>Мирзарахимова Г. И.</b> Динамика интеллекта слаборечевых подростков .....	350
<b>Khamrakulova O.A.</b> Strategies for developing students' critical thinking skills in teaching foreign languages .....	354
<b>Radjabova Z.M.</b> Kasb tanlash faoliyatining asosiy psixologik muammolari .....	360
<b>Jabborova S.A., Bahodirova M.J., Nurmetov X.S.</b> Belgilarning jins bilan birikkan holda irsiylanishi mavzusini mustahkamlashda zamonaviy pedagogik usullar va texnologiyalarni qo'llash .....	367

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӨМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Xakimova B.M.</b> Gender o'z-o'zinini rivojlantirish jarayonida maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarni o'stirishning nazariy jihatlari .....	374
<b>Sarsenbaev A.</b> Haqoratning jinoiy-huquqiy tasnifi .....	380



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA AMALIY KO'NIKMALARНИ SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

*Ernazarova M.J.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** klaster, klasterli yondashuv, ijodiy klaster, amaliy ko'nikma.

**Ключевые слова:** кластер, кластерный подход, творческий кластер, практические навыки.

**Key words:** cluster, cluster approach, creative cluster, practical skills.

Kirish. Ma'lumki, har qanday davlatning rivojlanishi uning amaliy salohiyatiga bog'liq. Amaliy salohiyat esa xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan o'z fikriga ega, malakali, bilimli, yuksak axloqli kadrler hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardanoq amaliy salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini yuritib kelyotgani ayni haqiqat. Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalaridan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlanterishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishi bo'ldi.

Respublikamizda yuz berayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar asosida boshlang'ich ta'lim tizimida kasbiy va metodik faoliyat samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kreativ potentsialini rivojlanterish yuzasidan keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda ta'lim klasterini ta'minlashning texnologik bosqichlari, o'quv-bilish faoliyati tavsifiga mos keluvchi muammoli, hamkorlikda o'qitish, individuallashtirish, izlanishli-tadqiqotchilik, o'quv axborotlari ustida ishslash, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari: noformal (o'qitish-asosiy izlanish - Hamkorlik strategiyasi asosida o'quv jarayoniga innovatsiyalar, onlayn o'qitish, tyutorli ta'limga urg'u berilishi) va informal (o'qitish - individual holatda va shaxsiy) o'qitish mazmunini takomillashtirish, bolalarning nutq va tafakkurini rivojlanterishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, mashg'ulotlarning integratsiyalashuvini



ta'minlashning turli modellari va texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shunday ekan boshlang'ich sinf o'quvchilarini amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish va bu borada ta'linda ham klasterni amalgaloshirish, bugungi kunning talablaridan biri hisoblanadi. Zamon talabidan kelib chiqqan har qanday yangi tendentsiyalar mакtabga kirmasining, dasturlar va darsliklar qanday o'zgarmasining, o'quvchilarning amaliy faoliyatini madaniyatini shakllantirish har doim asosiy umumiyligi talablardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish borasida so'z yuritar ekanmiz bu amaliyotni eng avvalo tarbiya fani misolida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yosh avlodda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun tarbiya, odob-axloq borasida adabiyotlarga quyidagicha fikrlar keltirilgan:

Sharq Renessansi deb nomlangan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksakka ko'tarilgan, ma'naviy boy davri bo'ldi. Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tara olgan markaz ya'ni "Ma'mun akademiyasi" (IX asr, Bag'dodda, "Baytul hikma") tashkil etildi. Akademiyada "Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining mahsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi. Mana shu ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarning yuzaga kelishida allomalarimiz Muhammad ibn Muso al-Horazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (975-1050) kabi olimlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Bu davr o'zining har tomonlama yuksakligi, yaratgan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari, jahonga mashhur allomalarining yetishib chiqqanligi bilan ham alohida ajralib turadi. "Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohaga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan harakterlidir. Ular:

aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'langan qadriyatlar;

ma'naviy-ruhiy qadriyatlari;

ijtimoiy-siyosiy qadriyatlari;

badiiy-nafis qadriyatlari;

diniy qadriyatlari tarzida o'z ifodasini topgan."



Mutafakkirlarning fikriga ko‘ra, insonparvarlik g‘oyalarining amalga oshishi, ma’naviy barkamollikka erishish uchun chuqur bilim olish va ma’rifatli bo‘lish lozim. Ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug‘lab, jamiyatning barcha a’zolarini ilm egallahsga chaqiradilar, ilmning inson ma’naviy hayotda tutgan o‘rnini yuqori baholaydilar. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari, ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotni o‘rganishda inson hislatlari to‘g‘risidagi falsafiy fikrlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma’naviy olamini o‘rganishga ahamiyat berib, inson barcha boshqa jismlarda bo‘lmagan qobiliyat va kuchga-ruhiy quvvatga-aql va so‘zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan hokim bo‘lish imkoniyatini bergenligi namoyon bo‘ladi. Forobiy bu dunyoqarashida narsa hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmli, ma’rifatli qilish uchun hizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e’tibor bergan. Forobiy o‘zining “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi ko‘plab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga boo‘liqligini aytib o‘tgani.

Abu Rayhon Beruniy esa bilim umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishning kaliti ekanligini alohida ta’kidlab, ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. “Ilmning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir”, - degan fikrni ilgari surgan.

Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U insonni ulug‘laydi. Yusuf Hos Hojibning fikricha, insonning ulug‘ligi aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Mnutafakkir o‘quv va bilimni farqlaydi: o‘quv tug‘ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o‘qish-o‘rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o‘zaro birlashsa, insonning qadri ortadi: Zakovat qaerda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi, Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik oladi. Zakovatli uqadi, bilimli biladi, Bilimli, zakovatli tilakka yetadi”, - deya ta’kidalydi. Yusuf Hos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liq holda bo‘lishini tavsiya etadi, o‘g‘il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o‘rganmoo‘i lozimligini ta’kidlaydi, bu-ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosda yoritib berishga harakat qiladi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning

o‘rniga alohida to‘xtalib: “Bola tug‘ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo‘yishi, so‘ngra esa uni yaxshilab tarbiyalashi kerak”, degan g‘oyani ilgari suradi. Al-Xorazmiy esa insонning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, deya ta’kidlaydi.

Sharq mutafakkirlari vijdon pokligi, oila, ota-on, xalq, farzand burchi haqida olg‘a surilgan g‘oyalarning asosini insonparvarlik tashkil etadi. Zero ota-on va farzandlarning o‘zaro munosabati, burchi ma’naviy qadriyatlarning oltin kalitidir.

Ibn Sinoning tibbiy risolalarida, “Donishnoma” asarida, Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Sa‘diyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlari bevosita ma’naviy fazilatlar, odob-axloq va tarbiya masalalariga taalluqlidir. Ular yuksak ma’naviy fazilatlarni umuminsoniy qadriyatlardan doirasida talqin etib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma’naviy omillarni yuksak baholaganlar. Ular “Fozil jamoa”, “Fozil shahar”, komil insonni shakllantirishning asosi ma’naviy omillarga bog‘liq degan g‘oyani ilgari surganlar.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Har bir yetuk mutaxassis ta’lim beradigan fanlari turkumini ilmiy – nazariy jihatdan o‘zlashtirishi, ilmiy bilishga doir g‘oyalari, nazariyalar va qonuniyatlarning mazmun – mohiyatini bilishi lozim.

Ilmiy nuqtai nazardan nazariya – bu jarayon mohiyati haqidagi haqiqiy isbotlangan, tasdiqlangan bilimlar tizimi sifatida qaraladi. Nazariya - ilmiy bilishning oliy shakli bo‘lib, tadqiq etilayotgan obyektning tarkibini, funksiyasini hamda rivojlanishini, uni tashkil etgan elementlar o‘rtasidagi aloqadorlik va bog‘liqlikni ochib beradi.

Fan qonunlari – obyektiv qonunlarni nazariy tasdiqlash shaklida ifodalanishidir (ya’ni tadqiq etilayotgan jarayonlarning, obyektlarning, voqealarning umumiyligi va zaruriy bog‘liqlik qonunlarini ifodalaydi).

Davlat va ijtimoiy hayotdagi ma’naviy – ma’rifiy o‘zgarishlar, ta’lim – tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq holda o‘zgarib yangilanib turadi. Shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy ko‘nikmalarini klasterli yondashuv asosida rivojlanirish uzuksiz ta’lim tizimining oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan biri bo‘lishi lozim. Bugungi talablardan kelib chiqib quyidagi o‘qitish qonuniyatlarini pedagogik amaliyotga qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

1. O‘qitish maqsadi, mazmuni, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga



bog‘liqlik qonuni. Ushbu qonuniyat ta’lim – tarbiya jarayonining tarkibiy qismlarini tanlash va shakllantirishda jamiyatdagи ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy – ma’rifiy o‘zgarishlar, ijtimoiy munosabatlarning ta’sirini o‘zida aks ettiradi. Mazkur qonuniyat ta’lim oluvchilarda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta’lim qonuniyati – shaxsning tahsil olish jarayoni, bilim, faoliyat usullarini o‘zlashtirishi, uning rivojlanishi va shaxsiy sifatlarini shakllanishiga asoslanadi. Mazkur qonuniyat har tomonlama kamol topgan barkamol shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Zero uzlusiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan fuqaroni shakllantirishni nazarda tutilgan.

Quyida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorgarligining zarur va yetarli darajasini ta’minlaydigan asosiy talablarga to’xtalib o‘tamiz:

- O‘qitish (dars berish) mahorati;

- Tarbiyalash mahorati;

- O‘quv – tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta’minlaydigan shaxsiy sifatlar;

- Ta’lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

Pedagog boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, bu o‘z navbatida undan dars jarayonini samarali tashkil etishni, multimedia vositalari asosida ma’ruzalar tashkil etishni rivojlantirishni, elektron darsliklar, elektron – o‘quv metodik ta’minot resurslaridan, innovatsion metodlardan o‘quv jarayonida unumli foydalanib, o‘quvchilar faolligini oshirishni, ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirishni talab etadi.

Bolalar bilan pedagogik ishni boshlayotganda, birinchi navbatda, bolaga tabiatan nima berilganini va atrof-muhit ta’sirida nima olinganligini tushunish juda muhim.Chunki inson moyilligini rivojlantirish, ularni qobiliyatga aylantirish – ta’lim va tarbiyaning vazifalaridan biri bo‘lib, uni bilimsiz va amaliy jarayonlarni rivojlantirmsandan turib hal qilib bo‘lmaydi. Aql-idrokni rivojlantirish jarayoni o‘quv va kognitiv faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilishi bilan bog‘liq bo‘ladi va bu ayniqsa, boshlang‘ich maktab yoshida,o‘quvchining bilish uchun shaxsiy ehtiyojlari yetarlicha kuchli bo‘lganda samarali bo‘ladi.



Amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda, mustaqil, ijodiy, izlanish, tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lilda bolalarning amaliy rivojlanishining asosiy poydevorini yarata olish kerak, bu esa oily ta'lim tizimining oldiga o'z harakatlarini tanqidiy baholaydigan, taqqoslaysidan, muammoni hal qilishning bir necha usullarini ilgari suradigan, ajratib ko'rsatadigan ijodiy, mustaqil fikrlaydigan pedagoglarni tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Asosiysi umumiy xulosalar chiqarish; bilimlarni nostandard sharoitlarda qo'llash. Bu faqat bitta shart bilan mumkin bo'ladi: o'quvchining amaliy rivojlanishi ustida tinimsiz ishlash.

### **Tahlil va natijalar**

Boshlang'ich mакtab yoshida o'qitish yetakchi faoliyatdir. Shu sababli, bolani maktab hayotiga muvaffaqiyatli moslashishi uchun bir faoliyat turidan ikkinchisiga silliq o'tish zarur. Buning uchun o'qituvchi darsda o'zin texnikasining har xil turlardan foydalananishi ularni dars mashg'ulotlarida ham, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham tasniflashi mumkin.

Muvaffaqiyatli o'quv jarayoni uchun darsda maxsus sharoitlar - quvonch, ajablanish, zavqlanish muhitini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda —muвaffaqiyatga erishish holatini yaratishdan keng foydalinish, o'quvchilarini o'z kuchiga ishonch bilan ruhlantirish, ular uchun hammasi yaxshi bo'lishiga ishontirish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv bilish faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish individual yondashuvsiz mumkin emas. Qabul qilish, e'tibor, fikrlash, xotira, tasavvur kabi intellektual sohaning tarkibiy qismlarining xususiyatlaridan tashqari, biz har doim bolaning hissiy va irodaviy sohasining xususiyatlarini, shuningdek temperamentning o'ziga xos xususiyatlarini, tezligini hisobga olishimiz lozim. Biz har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishga harakat qilishimiz kerak. Differentsial va individual yondashuvlarga muvofiq, o'quvchilar uchun vazifalar shunday tanlanishi kerakki, rag'batlantirishga muhtoj bo'lganlar tegishli bosqichda o'zları uchun mavjud bo'lgan vazifalarni olib, so'ngra murakkabroq mashqlarga o'tishlari kerak.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy ko'nikmalarini tarbiyalash va ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, qiziqarli topshiriq va masalalarni tanlashga alohida e'tibor berish zarur. Darsga doir tanlanadigan topshiriq va masalalar aniq bir sistemani tashkil qilishligi, o'ziga xos tanlash usuliga va o'qitishning aniq bir maqsadiga qaratilishi zarur. Tanlangan topshiriqlar sistemasi har xil mavzular yuzasidan bo'lishi mumkin.



Topshiriqlarning mazmuni boshlang‘ich sinfda tarbiya fanini o‘qitishning maqsad va vazifalariga mos kelishi zarur. Tanlangan topshiriqlarni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchi aniq ilmiy bilimga va amaliy malakaga ega bo‘lishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi —O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. 2-bet.
2. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna Tursunova Malika Baxtiyor qizi Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI DARSLIK Toshkent – 2022
3. Azizxo‘jaeva N.N. —Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: —O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2003 y.
4. A.S Yefimov —Darslarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini o‘stirish. Toshkent —O‘qituvchi nashriyoti 1966-yil
5. Ochilov M. —Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi: Nasaf, 2000 y.
5. Ochilov M. —Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi: Nasaf, 2000 y.
7. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. —Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari
8. E.G‘oziyev —Talim jarayonida o‘quvchilar tafakkurining o‘sishi Toshkent —Fan nashriyoti 1980
9. Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna ”Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish” magistrlik dissertatsiyasi 2023-yil.
10. Ximmataliev D. O. Ernazarova M. J. Matematika o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual qobiliyatini rivojlantirish. “Zamonaviy ta“lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 37-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konfrensiya materiallari

### **РЕЗИОМЕ**

Maqolada klasterli yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish , individual faoliyat uslubini shakllantirish, klasterli yondashuvning asosiy imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

### **РЕЗИОМЕ**

В статье говорится о формировании и развитии практических навыков учащихся младших классов на основе кластерного подхода, формировании индивидуального стиля деятельности, а также об основных возможностях кластерного подхода.

### **SUMMARY**

The article talks about the formation and development of practical skills of elementary school students based on the cluster approach, the formation of an individual activity style, and the main possibilities of the cluster approach.



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

*Qosimov Sh.U.*

*Termiz davlat pedagogika instituti, dotsent, fakultet dekani*

**Tayanch so’zlar:** kasb, pedagog, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, o‘quv predmetlari, texnologiya, ijodkorlik, bilim, malaka.

**Ключевые слова:** профессия, педагог, компетентность, профессиональная компетентность, учебные предметы, технология, творчество, знания, квалификация.

**Key words:** profession, pedagogue, competence, professional competence, educational subjects, technology, creativity, knowledge, qualification

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘s, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya